
TANLOV



SARDORLAR BELLASHGANDA

Bugun O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tuman Kengashi tashabbusi bilan "Yil sardori" tanloving sektor bosqichi bo'lib o'tdi.

Iqtidorli bolalarni aniqlash, ularning iste'dodlarini namoyon qilishlariga imkoniyat yaratish va qo'llab-quvvatlash, yosh avlodning madaniy saviyasini yuksaltirish va milliy san'at an'analari hamda yo'nalishlarini saqlab qolish, rivojlantirish va davom ettirish maqsadida bo'lib o'tgan "Yil sardori" tanlovi Qo'shtepa tumanidagi 4 ta sektorda o'tkazildi.

Tanlov yuqori saviyada, baxs va munozaralarga boy bo'ldi. Yakuniy natijalarga ko'ra 1-sektor hududidan 40-maktab sardorlari, 2-sektor hududidan 32 va 50-maktab sardorlari, 3-sektor hududidan 16 va 43-maktab sardolari, 4-sektor hududidan 30 va 9-maktab sardorlari tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdilar.



Eslatib o'tamiz tanlovning tuman bosqichi 30-mart kuni "Yoshlar markazida" bo'lib o'tadi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-03-29 20:13:38